

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

## INKLYUZIV TA'LIM

*Xojiboyeva Dinora Bahtiyor qizi*

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi  
2- bosqich talabasi*

**Annatatsiya :** Ushbu maqola inklyuziv ta'lism haqida bo'lib , bolalarni inklyuziv ta'limga jalg qilish ijtimoiy hayotga moslashtirish va ta'lism tarbiya jarayonlarini .

**Kalit so'zlar :** Qonun , inklyuziv ta'lism, sensor , diskriminantsiya , moslashish, nuqson, integratsiya , tiflopedagog , karreksion , tyutir, instruktir.

**KIRISH :** Davlatimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lism to'g'risidagi Qonunning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlatxitisoslashtirilgan ta'lism muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lism tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lism oladi". Inklyuziv ta'lism haqida so'z yuritilganda , uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so'z boradi. O'zi „Inklyuziv ta'lism” nima? „Inklyuziv ta'lism” bu (ingliz tilidan olingen bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi). Nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati chelangan ) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lism jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lism tizimidir. Inklyuziv ta'lism hamma bolalarning bir xil mакtab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lism olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lism maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Ba'zan tengdoshlarimiz, orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shgan bo'lamiz . Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haqli! Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lism muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida „inklyuziv” yoki „integratsion” ta'lism atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lism bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammozi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Inklyuziv ta'lismning maqsad va vazifalari:

Inklyuziv ta'lism tizimida qo'yidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi: ta'lism muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lism olishlari uchun zaruriy psixologik -pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lism dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish; -o'quvchilarning ta'limga tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ixtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

# **ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI**

**30-MAY**

**ANDIJON,2024**

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'lim hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, u barcha maktab jamoasini, maxsus o'qituvchini, psixologlarni, keng jamoatchilik hamda tyutorlarni qamrab oladi. Ularning orqasida hozirgi kunda yangi lug'at so'zi hamda yo'nalish sifatida tyutor jumlesi kirib kelmoqda. Avvalambor, "tyutor" tom ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma'lum bir sohaning mutaxassisini bo'lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko'maklashadi. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga yordamchi pedagog sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyat davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Biz rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan insonparvar o'qituvchining eng muhim kasbiy ahamiyatlari xususiyatlari qanday bo'lishi kerak degan savolga quyidagicha javob beramiz: Rahmdil insoniy munosabatlar, bolalar uchun foydali bo'lish istagi, o'zini o'zi qadrlash, hamdardlik, kuchli mas'uliyat, sabr-toqat, bag'rikenglik, stressli vaziyatlarga nisbatan bag'rikenglik, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaning shaxsiga hurmat hissini o'zida jamlash kabilardir. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan umumta'lim maktablarida tiflopedagog o'qituvchilar shug'ullanadi. Tiflopedagog o'qituvchisi inklyuziv ta'lim joriy qilingan tashkilotlarda faoliyat yuritishi uchun maxsus (korreksion xonalar, ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi uchun texnik vositalar) sharoitlar yaratilgan bo'lishi va ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'limi bilan faqatgina tiflopedagog o'qituvchi shug'ullanishi ko'zda tutilgan. Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarining salohiyatini rivojlanirish maqsadida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi ta'lim-tarbiya jarayonining nazorati ushbu sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus pedagoglar inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlantiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi.

XULOSA: Ushbu maqola inklyuziv ta'lim haqida bo'lib bunda Ta'lim to'g'risidagi Qonunlar Boblar moddasidalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Inklyuziv ta'limda jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladilar . Inklyuziv ta'limda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun judayam ko'p shart sharoitlar yaratilgan.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. file:///C:/Users/Digital/Downloads/6232-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-15722-1-10-20220620.pdf
2. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv-talim-nima/>
3. [https://api.scienceweb.uz/storage/publication\\_files/6033/15367/6568ab4a310a7\\_65-68.pdf](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/6033/15367/6568ab4a310a7_65-68.pdf)